

INGLIZ TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARNING SAMARADORLIGI

Narpulatova Gulruh Farhod qizi

O'zbekiston Davlat Jahon Tillar Universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17774074>

Annotatsiya: Ushbu maqolda ingliz tili darslarida yangi pedagogik metodlardan foydalanishning ahamiyati va samaradorligi, interfaol metod turlari, ayrim metodlar sharhi, til o'rganishning qiziqarli bo'lishiga yordam berishi haqida tahlil qilinadi. Tadqiqotda ball, reyting jadval va o'ziga jalb qiluvchi, qiziqish uyg'otuvchi turli interaktiv o'yinlar o'rganiladi. Raqamli platformalari orqali til o'rganuvchi olgan bilimini mustahkamlab ham oladi.

Kalit so'zlar: Interfaol, ingliz tili, metod, raqamli platforma, strategik, akademik, motivatsiya, pedagogik yondashuv, dars, tadqiqot, globallashtirish.

Abstract: This article analyzes the importance and effectiveness of the use of new pedagogical techniques in English lessons, the types of interactive methods, a review of certain methods, the fact that language learning helps to be interesting. The study explores scores, a ranking table, and various interactive games that are engaging, of interest. Through their digital platforms, the language learner can also consolidate the knowledge gained.

Keywords. Interactive, English, method, digital platform, strategic, academic, motivation, pedagogical approach, lesson, research, globalization.

Аннотация: В данной статье будет проанализировано значение и эффективность использования новых педагогических методов на уроках английского языка, виды интерактивных методов, обзор некоторых методов, которые помогут сделать изучение языка интересным. В исследовании изучаются баллы, рейтинговая таблица и различные интерактивные игры, которые привлекают внимание и вызывают интерес. С помощью своих цифровых платформ изучающий язык также может закрепить полученные знания.

Ключевые слова. Интерактивный, английский язык, метод, цифровая платформа, стратегический, академический, мотивационный, педагогический подход, урок, исследование, глобализация.

Kirish

Bugungi globallashtirish jarayonida ingliz tili dunyodagi eng muhim xalqaro aloqalardan biriga aylanmoqda. U nafaqat xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy va madaniy aloqalarni rivojlantirishda, balki ilm-fan, ta'lim, texnologiya va internet zamonida ham keng qo'llanilmoqda. Shu boisdan ingliz tilini o'rganish bugungi yoshlar uchun zarurat, o'qitish jarayonini esa zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Qisqa vaqt ichida nazariy bilimlarni o'quvchiga yetkazib berish, ularning egallagan bilim va ko'nikmalarini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik yondashuvni talab qiladi. An'anaviy ta'lim usullari ko'p hollarda o'quvchining faolligini cheklab, ularning bilimini tayyor shaklda qabul qiluvchi sifatida shakllantiradi. Natijada o'quvchi mustaqil fikrlash, muloqot qilish va o'z fikrini erkin bayon etish ko'nikmalarini yetarli darajada rivojlantira olmaydi. Shu sababli so'ngi yillarda ta'lim tizimida interfaol metodlardan foydalanish tobora dolzarb masalaga ayblanmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan "Yoshlar – kelajagimiz" tamoyili asosida ta'lim tizimini tubdan rivojlantirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli qarorida xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirish hamda ilg'or pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish

vazifalari belgilab berilgan. Bu esa zamonaviy ta'limda an'anaviy yodlash va tarjima qilish modelidan voz kechib, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydigan interaktiv metodlardan foydalanishni taqozo etadi.

Interaktiv so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib "inter – o'zaro", "akt – harakat, ta'sir, faollik" ma'nolarini anglatadi. Ya'ni "Interaktiv" atamasi odamlarning birgalikda ishlashi va bir-biriga ta'sir qilishini anglatadi. Interaktiv metodlar – shunday metodlarki, bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Interaktiv metodlar maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- O'quvchini faol ishtirokchiga aylantirish;
- O'quvchilarni mustaqil, taqidiy fikrlashga o'rgatish;
- Muammoli vaziyatni amaliy va hayotiy topshiriqlar asosida yechish;
- Bilimlarni mustahkamlash va qo'llash imkoniyatlari oshadi;
- Jamoada ishlash ko'nikmasi hosil bo'ladi;

Interfaol metod turlarini tanlashda quyidagilarga e'tibor berishimiz zarur.

- Dars maqsadi va mavzusiga mos kelishi;
- O'quvchilarning yoshi va tayyorgarlik darajasiga;
- Guruh sonlari;

"Chet tillari bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga erishgan maktablar uchun Prezident sovrini ta'sis etiladi"- Shavkat Mirziyoyev Miromonovich. Interaktiv metodlar, odatdagidek, o'quvchining shaxsiy faolligiga tayanadi, ularning ijodiy, mantiqiy fikrlashiga xizmat qiladi. Bunday interfaol metodlar ta'lim jarayonini bir tomonlama emas, ikki tomonla ya'ni fikr almashish va guruh bo'lib, hamkorlikda ishlash ko'nikmasini ham oshiradi.

Interfaol metodlardan foydalanish ingliz tilining to'rtta ko'nikmasi – gapirish, tinglab tushinish, o'qish va yozish kompetensiyalarini birgalikda rivojlantirishga yordam beradi. Ingliz tilini o'rgatishda qo'llaniladigan interfaol o'yinlar ichida "**Rol o'ynash**" (**Role-play**) "**Aqliy hujum**" (**Brainstorming**) "**Munozara va bahslar**", (**Discussion and debate**) "**Baliq skeleti**", (**Fishbone**), "**Klaster**" (**Clauster**) "**Kahoot**", "**Word wall**", "**KWL**" va boshqa interaktiv o'yinlar keng tarqalgan. Quyida yangi interaktiv metodlardan bir nechtasini tahlil qilsak.

KWL - (knew- bilardim), (Want- xoxlardim), (learnt - o'rgandim) .

KNEW	WANT	LEARNT

Ingliz tilini o'qitishda mazkur grafik organizerdan keng qo'llaniladi. O'tilayotgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning dars avvalidan nimani bilishlari, nimani bilishni xohlayotgani va dars so'ngida nimani o'rganganini uchta ustunga to'ldirishadi.

Kahoot - online platforma orqali jamoa bo'lib ishlashi va umumiy o'tilgan mavzu va lug'atlarni takrorlab, ularni mustahkamlab olishadi.



Amaliy qo'llanilishi: sinfda juft yoki guruh bo'lib ishlash, rolli o'yinlar masalan, do'konda xarid qilish, restoranda buyurtma berish va qisqa bahs - munozaralar orqali o'quvchilar o'z fikrini izohlaydi.

Wordwall esa ko'proq lug'at va grammatik mashqlari uchun ishlatiladi. Bu platforma orqali o'qituvchi turli o'yinlar "match - up", "maze", "quiz" kabi mashqlarda faol ishtirok etib, lug'at va grammatikani mustahkamlaydi. Masalan,



"Role play" ingliz tilida og'zaki nutqni rivojlantirish uchun eng samarali vositalardan biridir. Unda o'quvchilar hayotiy vaziyatlarni sahnalashtirib, amaliy muloqot orqali tilni o'rganadilar. Masalan, "In the shop", "At the airport", "At the hotel", "Asking for directions" kabi mavzularda o'tkazilgan rol o'yinlari o'quvchilarning real hayotda inglizcha muloqot qilishga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi va ularni faol suhbatlashuvga tayyorlaydi.

Interfaol ta'lim va an'anaviy ta'lim o'rtasida farqlarni quyidagilarda ko'rishimiz mumkin.

1. O'quv rejadagi fanlarni o'qitishda qaysi mavzular bo'yicha interfaol darslar tashkil qilish maqsadga muvofiqligini hisobga olish zarur. Ya'ni har bir o'tilayotgan mavzu maqsadga to'liq erishishga yordam beradigan interfaol yoki an'anaviy mashg'ulot turlaridan foydalanish.
2. Interfaol o'yinlardan oldin o'quvchilarning dastlabki fikrlarini tekshirib olish. Bunday interfaol usullar til o'rganuvchining nutq, tafakkur, mulohaza, zehnlarni o'stirish orqali ularni mustaqil fikrlashga xizmat qiladi.

Ingliz tili darslarida turli pedagogik metodlarni qo'llash o'quvchilarning til ko'nikmalarini samarali rivojlantirish, motivatsiyani oshirish va dars jarayonini interfaol qilishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek audio - visual metodlar va audio - lingual metodlar talaffuz, tinglab tushunish va grammatikani mustahkamlashda samarali bo'lib, o'quvchilarga tilni tabiiy muhitda eshitish va ishlatish imkonini yaratadi. Interaktiv o'yin metodlari masalan Kahoot, Quizizz esa darslarni qiziqarli va jonli qilish, o'quvchilarning faolligini va bilimlarni nazorat qilish imkonini taqdim etadi.

Xulosa

Umuman olganda, zamonaviy metodlarni uyg'un holda qo'llash darslarni nafaqat samarali, balki interfaol va qiziqarli qiladi. Bunday yondashuvlar o'quvchilarga mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rag'batlantiradi. Shuningdek, texnologiyalardan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu tarzda pedagogik metodlarning kombinatsiyasi o'quv jarayonini yanada boyitadi, til o'rganish jarayonini yanada optimallashtiradi va o'quvchilarning umumiy akademik ko'rsatkichlarini oshiradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. <https://inlibrary.uz/index.php/international-scientific/article/view/99269>
2. file:///C:/Users/Admin/Downloads/INGLIZ+TILINI+O%E2%80%98RGANISHDA+INTERAKTIV+METODLARDAN+FOYDALANISHNING+AHAMIYATI.pdf
3. Rustamova, M., & Karimova, S. (2024). Implementation of Kahoot and Wordwall to improve vocabulary knowledge. RMASAV Journal.
4. https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/download/743/nARTC_2_1_B_21/734
5. Ruzmetova, D. (2024). Interactive resources used in teaching English through digital platforms. Ilmiy Anjumanlar.
6. https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0056/56_i_20241202_124354_6.22.pdf
7. Mamatqulova, N. (2023). Chet tillarini o'qitishda zamonaviy metodlardan foydalanishning samaradorligi. Ta'lim va Innovatsiya jurnali, 5(2), 112–117.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning "Chet tillarini o'qitish sifatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son Qarori. (2021-yil 19-may).